
RISHTON TOMORQACHILIGI O'RGANILDI

Rishton tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi va Respublika ishchi guruhi tomonidan aholi tomorqalaridan samarali foydalanish bo'yicha o'rganishlar olib borildi. Ishchi guruhi tomonidan "Qayrag'och" mahallasida istiqomat qiluvchi fuqarolar tomorqalaridan qanday foydalanayotgani o'rganildi. Ma'lumki, ushbu mahallada mirishkor dehqonlar ko'p. Ana shundaylardan biri tomorqachi Adhamjon Mahkamov bo'lib, uning xonadonida 4 sotix tomorqasi majud. Adhamjon tomorqasidagi toklarni ostidan ham unumli foydalangan holda bodring, pomidor, so'ritoklarda esa qovun, tarvuz hamda oshqovoq yetishtirmoqda. Qayrag'ochlik dehqonning yerdan unumli foydalanib, mo'may daromad topayotgani barchani lol qoldirdi. Bugun shuningdek, Respublika ishchi guruhi vakili Sanjar Umirzaqov hamda viloyat fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisining o'rinbosari Sardor Mo'minov, Rishton tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi raisi Isomiddin O'rinboevlar tumanda tashkil etilgan "Tomorqa xizmati" MChJ rahbarlari ishtirokida aholi tomorqalaridan samarali foydalanish bo'yicha uchrashuv o'tkazishib, bu borada qilinayotgan ishlarni muhokama qilishdi. Tumanda faoliyat yuritayotgan "Rishton tomorqa xizmati" MChJ tomonidan tashkil etilgan issiqxonada ayni damda limon hamda mandarin yetishtirilmoqda.

2022-08-12 21:19:52